XALQ DEPUTATLARI CHILONZOR TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 17-dekabr III-14-105-14-204-K/25 Chilonzor tumani

Chilonzor tumanidagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 9-bobi hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan 2026-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Chilonzor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1.Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030 yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 23-iyundagi PF–98-son Farmoniga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish vakolatlari Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga o‘tkazilganligi;

b)O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-son Farmoniga asosan:

xo‘jalik yurituvchi subyektlar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 3 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan qo‘llanilishi;

byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan tatbiq etilishi belgilanganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Chilonzor tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda Chilonzor tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining Chilonzor tumani hududidagi tashkilotlar bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin:

xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining yetti foizidan oshmagan miqdorda hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining uch foizidan oshmagan miqdorida kelgusi yil uchun 980 ta ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish, jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 1,3 foiz (13 kishi);

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 24,6 foiz (242 kishi);

kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari uchun 49.0 foiz (481 kishi);

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun 23,8 foiz (234 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun 1,0 foiz (10 kishi);

3. 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish maqsadida :

davlat tashkilotlari (byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida yigirma besh foizi miqdorida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining tayyorligini yil boshlanishidan oldin o‘n kundan kechiktirmay ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Chilonzor tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qiladi;

ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda Chilonzor tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qiladi;

ishga joylashtirish to‘g‘risida Chilonzor tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar axborot taqdim etadi.

Zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarini saqlash shartlari O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 40-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-son qaroriga muvofiq aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo‘lgan shaxslarni ish o‘rinlarining belgilangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilish uchun ish beruvchilarga –har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya mablag‘larini to‘lab berilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni 3-,13-, 34-, 38-, 39-, 40-, 41-moddalariga asosan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha

olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandi, 2-qismiga asosan, muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha Chilonzor tumani Kengashining qarori bajarilmaganligi uchun jarima to‘lash tashkilotni zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

8 Chilonzor tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (J.Jo‘rayev)ga

besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini ilovada ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazish va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlash;

aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha xalq deputatlari Chilonzor tumani Kengashining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortishni ta’minlash vazifalari yuklansin.

9. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb- saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Chilonzor tumani Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi M.Nazirov va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Abdukadirov zimmalariga yuklatilsin.

11. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi **XOLXO‘JAYEV SAIDQAHHOR MUHAMMADKARIM O‘G‘LI**

Xalq deputatlari Chilonzor tumani Kengashining
2025-yil 17-dekabrdagi
III-14-105-14-204-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Chilonzor tumanida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari (budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo'yiladigan ish o'rinlarining manzilli

RO'YXATI

T/p	Tashkilot nomi	Tashkilotning STIRi	Shtat jadvali bo'yicha xodimlarning umumiy soni	shundan	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari soni	шу жумладан:				
				nogironligi bo'lgan shaxslar soni		nogironligi bo'lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag'al oilalar reestiridagi oilalarning a'zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan shaxslar	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar
	ЖАМИ:		**18373**	**275**	**980**	**13**	**242**	**481**	**234**	**10**
1	"TOSHKENT PEDAGOGIKA TEXNIKUMI" DAVLAT MUASSASASI	200794194	63	1	**4**		1	2	1	0

2	RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN ONKOLOGIYA VA RADIOLOGIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI TOSHKENT SHAHAR FILIALI	200794234	536	4	**31**	2	6	18	5	0
3	"RESPUBLIKA SHOSHILINCH TIBBIY YORDAM ILMIY MARKAZI" DAVLAT MUASSASASI	200794313	3333	38	**143**		32	82	29	0
4	"O`ZBEKISTON DAVLAT MUSIQALI KOMEDIYA (OPERETTA) TEATRI" DAVLAT MUASSASASI	200794352	204	4	**12**		3	5	4	0
5	УЧРЕЖДЕНИЕ "RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN DERMATOVENEROLOGIYA VA KOSMETOLOGIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZINING TOSHKE	200794416	106	3	**7**		2	4	2	0
6	"TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI	200794448	2719	26	**122**	1	32	51	38	0
7	CHILONZOR TUMANI TIBBIYOT BIRLASHMASI MARKAZIY KO'PTARMOQLI POLIKLINIKA	200794503	447	9	**28**	**1**	8	13	6	0

8	"AKADEMIK V VOHIDOV NOMIDAGI RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN XIRURGIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI"	200794510	976	15	**52**	1	12	29	10	0
9	"O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI HUZURIDAGI MUQIMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON DAVLAT AKADEMIK MUSIQALI TEATRI" DAVLAT MUASSASASI	200794559	230	5	**12**	1	4	5	2	0
10	"O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI HUZURIDAGI SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI QO‘MITASI" DAVLAT MUASSASASI	200794614	245	5	**12**	**1**	4	5	2	0
11	"O`ZBEKISTON MILLIY ARXIVI" DAVLAT MUASSASASI	200794653	123	1	**9**		2	4	2	0
12	"RESPUBLIKA OITSGA QARSHI KURASH MARKAZI" DAVLAT MUASSASASI	200794684	241	9	**12**		4	5	3	0

13	TOSHKENT VILOYATI IXTISOSLASHTIRILGAN SOMATIKA SHIFOXONASI	200794692	153	5	**11**		3	5	3	0
14	"103-SONLI IXTISOSLASHTIRILGAN DAVLAT UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	200794732	86	1	**6**		2	3	2	0
15	"BILIM AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI" DAVLAT MUASSASASI	200794749	50	1	**4**		1	2	1	0
16	"CHILONZOR TUMANI OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI" DAVLAT MUASSASASI	200794804	646	16	**31**		7	9	5	10
17	"CHILONZOR TUMANI MADANIYAT BO`LIMI" DAVLAT MUASSASASI	200794907	58	1	**4**		1	2	1	0
18	"RESPUBLIKA OLIMPIYA VA PARALIMPIYA SPORT TURLARIGA TAYYORLASH MARKAZI" DAVLAT MUASSASASI	200795003	291	5	**20**	1	5	9	5	0
19	"VOSTOK ILMIY ISHLAB CHIQARISH BIRLASHMASI" DAVLAT UNITAR KORXONASI	200795399	249	1	**17**		4	9	4	0
20	"O'ZBEKFILM KINOKONSERNI" DAVLAT UNITAR KORXONASI	200795984	168	5	**12**		3	6	3	0
21	"MARKAZIY MAYDONLARNI OBODONLASHTIRISH IXTISOSLASHTIRILGAN BOSHQARMASI" DAVLAT	200797198	759	21	**34**		8	17	9	0

	MUASSASASI									
22	"RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN GEMATOLOGIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI" DAVLAT MUASSASASI	201190732	526	5	**24**	**1**	5	12	6	0
23	"NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI	201354108	1311	24	**53**	1	15	24	13	0
24	"38-SON OILAVIY POLIKLINIKA" DAVLAT MUASSASASI	201550473	223	2	**16**		4	8	4	0
25	"O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI HUZURIDAGI MAKTABGACHA TA’LIM AGENTLIGI TASARRUFIDAGI TOSHKENT SHAHAR CHILONZOR TUMANI 204-SONLI EKSPERIMENTAL DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	202610888	97	1	**7**		2	3	2	0

26	33-SON OILAVIY POLIKLINIKA	203194069	188	1	**13**		3	7	3	0
27	37-SON OILOVIY POLIKLINIKA	203209119	189	3	**13**		3	7	3	0
28	36-OILAVIY POLIKLINIKA	203209126	164	4	**11**		3	6	3	0
29	"101-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203250892	171	2	**12**		3	6	3	0
30	"195-SONLI MATEMATIKA FANINI CHUQURLASHTIRIB O`QITISHGA IXTISOSLASHTIRILGAN DAVLAT UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203250900	148	4	**10**		3	5	3	0
31	"182-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203289732	106	4	**7**		2	4	2	0
32	"34-SON OILAVIY POLIKLINIKA" DAVLAT MUASSASASI	203316001	152	1	**11**		3	5	3	0
33	"178-SONLI IXTISOSLASHTIRILGAN DAVLAT UMUMTA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203333203	153	1	**11**		3	5	3	0

34	"35-SON OILAVIY POLIKLINIKA" DAVLAT MUASSASASI	203486923	204	1	**14**		4	7	4	0
35	TOSHKENT SHAHAR FTIZIATRIYA VA PULMONOLOGIYA MARKAZI	203822021	127	4	**9**		2	4	2	0
36	" 162-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	204809272	96	2	**7**		2	3	2	0
37	"173-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	205304213	86	1	**6**		2	3	2	0
38	"TOSHKENT SHAHAR CHILONZOR TUMANI “BARKAMOL AVLOD” BOLALAR MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	205319803	60	1	**4**		1	2	1	0
39	"MUSTAQILLIK MAYDONINI KOKALAMZORLASHTIRISH OBODONLASHTIRISH VA SAQLASH DEPARTAMENTI"	205450674	298	4	**17**	1	3	8	5	0
40	"217-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	205656281	161	2	**11**		3	6	3	0
41	"131-SONLI IXTISOSLASHTIRILGAN DAVLAT UMUMTA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	205727192	109	2	**8**		2	4	2	0

42	"126-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206303300	132	3	**9**		2	5	2	0
43	"90-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206868190	96	1	**7**		2	3	2	0
44	"179-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206868208	79	2	**6**		1	3	1	0
45	"270-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206868223	107	2	**7**		2	4	2	0
46	"163-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206868230	81	2	**6**		1	3	1	0
47	"168-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206868254	88	1	**6**		2	3	2	0
48	"280-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206868262	145	1	**10**		3	5	3	0
49	"232-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206868279	97	1	**7**		2	3	2	0
50	"181-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206868286	77	1	**5**		1	3	1	0
51	"184-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206868294	110	1	**8**		2	4	2	0
52	"79-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206868302	110	1	**8**		2	4	2	0

53	"201-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206868326	89	1	**6**		2	3	2	0
54	"114-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206876815	110	3	**8**		2	4	2	0
55	TUMANLARARO 2-SON TERI-TANOSIL KASALLIKLARI DISPANSERI	206941061	112	1	**8**		2	4	2	0
56	"ODAM SAVDOSI JABRDIYDALARIGA YORDAM BERISH VA ULARNI HIMOYA QILISH BO`YICHA RESPUBLIKA REABILITATSIYA MARKAZI" DAVLAT MUASSASASI	206988407	24	1	**3**	1	0	1	0	0
57	"BOLALAR ONKOLOGIYASI GEMATOLOGIYASI VA IMMUNOLOGIYASI ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI" DAVLAT MUASSASASI	309211410	645	7	**28**	1	7	15	5	0
58	"SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI SOHASIDA KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI" DAVLAT MUASSASASI	310644847	19	1	**1**		0	1	0	0